



## “ANOR VA UNING BIOLOGIK XUSUSIYATLARI”

Ubaydullayeva Shohista Hidoyatillo qizi

TerDMAU, Agrobiologiya fakulteti, O‘simliklar va qishloq xo‘jaligi  
mahsulotlari karantini yo‘nalishi talabasi  
<https://doi.org/10.5281/zenodo.17580911>

### ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 05-noyabr 2025 yil  
Ma‘qullandi: 08-noyabr 2025 yil  
Nashr qilindi: 11-noyabr 2025 yil

### KEYWORDS

*o‘simliklar tarixi, anor navlari,  
biologik xususiyat, daraxt, buta,  
iqlim, nav, anorga sharoit,  
anordoshlar oilasi, tabiiy muhit.*

### ABSTRACT

*Ushbu maqolada anor mevasining kelib chiqishi va boy tarixi biologik xususiyatlari, qishloq xo‘jaligidagi ahamiyati va inson salomatligi uchun juda shifobaxsh o‘simlik ekanligi haqida ma‘lumotlar keltirilgan*

O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligiga erishgan yillardanoq qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini o‘rganish va ularni tahlil qilish anchagina ko‘paydi. Ayniqsa, ushbu meaning kasalliklariga qarshi kurashish choralari keng ravishda ko‘rib kelinmoqda. Yurtimiz taraqqiyoti hamda aholi sonining tobora ortib borishi oziq-ovqat, xususan, mevalarga va uni qayta ishlab tayyorlangan mahsulotlar, ularning turi va sifatiga bo‘lgan talabni oshirib yubormoqda. Ayniqsa bu holat ilmiy kitoblarda yorqin aks etgan.<sup>1</sup> Masalan biz o‘rganayotgan anor mevasining seleksiyasi va uni ko‘paytirish yo‘llari keng o‘rganilib, ilmiy tadqiqot ishlari jadallashib bormoqda. Ho‘l mevalar hamda ularning qayta ishlangan mahsulotlariga bo‘lgan talab boshqa barcha mevali ekinlar orasida anor ekini mashhurligi jihatidan alohida o‘rinda turadi desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Biz endi anorning kelib chiqish tarixi va biologik xususiyatlarini ushbu maqolada kengroq yoritib bermoqchimiz. Anor (*Punica granatum*) anordoshlar (*Punicaceae*) oilasiga kiradi. Anor kichikroq daraxt yoki buta shaklida o‘sadi. Uning bo‘yi 2-5 metrgacha yetadi. Ildizi kuchli rivojlangan va ko‘p tarmoqlangan uzoq yil yashaydi. Odatda ko‘plab ildiz bachkilari chiqaradi. Shoxlari tikanli nordon anorning tikanlari, shirin anornikidan ko‘p bo‘ladi, gullari yirik, chiroyli, yakka-yakka yoki to‘p-to‘p to‘q qizil, zarg‘aldoq qizil bo‘ladi (uzunligi 2-5 sm, diametri 2-2.5sm) odatda, novda uchida bittadan beshtagacha joylashadi, chetdan changlanadi. Bir tup anorda ikki xil uzunchoq toj bargli kuchala shakldagi gul uchraydi:

1) nisbatan yirik o‘lchamli, ko‘zasimon shakldagi chanchi va urug‘chilari me‘yoriy holatda rivojlangan gullar bo‘lib, ular meva tugadi.

2) nisbatan kichik o‘lchamli, qo‘ng‘iroqsimon shakldagi urug‘chi yaxshi rivojlanmagan erkak gullar hisoblanib, undagi onalik yaxshi rivojlanmagan va mayda bo‘lib, meva tugmaydi.

<sup>1</sup> Abdullayev X.A., Karimov X.X. Индексы фотосинтеза в селекции хлопчатника // Душанбе.-Изд-во Дониш,-2001.-С.28-69.

Anor barglari ellipsimon, kalta bandli, poyada qarama-qarshi tipda joylashgan, mevasi ko'p urug'li sinkarp meva bo'lib, urug'lari tashqi tomondan po'st bilan qoplangan. Anor mevasi dumaloq olti qirrali shaklda, diametr o'lchamlari 5-12 sm ga teng bo'lib, ichki qismida och-qizil rangdagi sellulozali qobiq bilan o'ralgan-600 donagacha urug'lari joylashgan. Anor asosan qalamchadan ko'paytiriladi. Unumdor qum nomi yetarli tuproqlarda yaxshi o'sadi. Qurg'oqchilikka chidamli lekin namsevar.



O'zbekiston sharoitida kech kuzda xashak, qamish bilan yopiladi yoki tuproqqa ko'milib, bahorda ochiladi. Vegetatsiya davri 180-215 kun yozdan kuzgacha gullaydi. Mevasi 120-160 kunda sentyabrning ikkinchi yarmida pishadi. -15-17 gradus sovuqqa chidaydi ammo -20 gradus sovuqda yer usti qismini sovuq urib ketadi. Anor 3-4 yoshdan meva tuga boshlaydi, 30-40 yil meva beradi. Anor (*Punica granatum*) kishilik sivilizatsiyasida qadimdan oziq-ovqat va tibbiyot maqsadlarida shuningdek, manzarali o'simlik sifatida foydalanib kelingan eksport va import nuqtayi nazaridan iqtisodiy jihatdan qimmatli mevalardan biri hisoblanadi.<sup>2</sup>

Anor mevali o'simlik sifatida qadimdan ma'lum. Qur'on va Injil kabi muqaddas kitoblarda ham keltirilgan. Anor eramizdan 900-400 yil oldin qadimgi Misr, Gretsiya, Eron va Italiyada keyinchalik, Afg'oniston, Turkmaniston, Hindiston, Xitoy, Yaponiya, Shimoliy Afrika, Yevropa, Rossiya, AQSH, Kaliforniya hududlarida keng miqyosda tarqalganligi qayd qilinadi. Anor madaniylashtirilishi esa taxminan 5000 yil oldin bo'lib, yovvoyi holda Kavkazoldi, O'rta Osiyo, Turkmaniston, Eron va Hindiston hududlarida o'sishi aniqlangan va kelib chiqish vatani ushbu mintaqalar hisoblanishi taxmin qilinadi. Biroq N.I. Vavilov tomonidan anorning kelib chiqish vatani yaqin sharq mintaqalari hisoblanishi qayd qilingan.

Anorning lotin tilidagi nomi (*Punica granatum* L.) Karfagen hududida yashagan qadimgi "pun" xalqi nomidan olingan bo'lib Yevropadagi aynan ushbu hududlardan keltirilgani to'g'risidagi ma'lumotlar qayd qilingan. Ayrim manbalarda anorning nomi "*Punica granatum*" bo'lib, "*Punica*" ushbu o'simlik vatani Tunis ekani aytilishi, "granatum" esa "donli" degan ma'noni bildirishi qayd qilinadi. Anor yovvoyi holda Kavkaz, Qrim, Afg'oniston va O'rta Yer dengizi mamlakatlarida, shuningdek Markaziy Osiyo davlatlarida keng tarqalgan bo'lib, subtropik mintaqalarda madaniy holda o'stiriladi. Tadqiqotchilar tomonidan ko'pgina madaniy anor navlari kelib chiqish vatani sifatida Eron taxmin qilinadi. Hozirgi vaqtda Eron dunyo miqyosida anor yetishtirish bo'yicha yetakchi davlatlardan biri hisoblanadi. Qadimgi Gretsiya

<sup>2</sup> A.A. Ro'bakov, S.A. Ostrouxova - «O'zbekiston mevaligi» T.: «O'qituvchi», 2016.

va Vavilonda anor daraxti va mevasi yangilanish ramzi, Eronda g'alaba ramzi, Xitoyda umrboqiylik ramzi, sifatida qadrlangan. Shuningdek, anor mevasi qadimdan baxt va omad sifatida ifodalangan, Buddizm diniy ta'limotida baxt keltiruvchi meva sifatida ta'riflanadi. Islom dinida Jannat mevasi sifatida qayd qilinadi. Qadimiy Sharq va Xitoyda farovonlik va serfarzandlik ramzi sifatida qadrlanadi. MDH davlatlari miqyosida anorning 90.1% qismi Ozarbayjon, O'zbekiston, Tojikiston va Turkmanistonda qolgan 10 % ga yaqin qismi esa Rossiya, Armaniston, Gruziya hududlarida yetishtirilishi qayd qilinadi. Hozirgi vaqtda anor dunyoning deyarli barcha mintaqalarida yetishtiriladi.



Tarixiy manbalarda guvohlik berishilicha, Sohibqiron Amir Temur dasturxonida doimo anor mevasi o'rin olgan. Mirzo Bobur asarlarida ham Marg'ilonda "Dono kalon" va "Sammom" navli anorlarni ta'rifi qayd qilingan

Anorning boy tarixi bo'lishi bilan bir qatorda uning inson salomatligi uchun juda katta ahamiyatga ega ekanligi sir emas. Anor mevasi oziq-ovqat hamda dorivorlik xususiyatlariga ko'ra qadimdan qadrlanadi. Xalq tabobatida qadimgi shifobaxsh vositalardan hisoblanadi. Tabobatda anor po'stlog'i, mevasi va meva po'sti, o'simlik guli, istisqo, qo'tir, yo'tal, ichburug', sariq kasalliklarida davo sifatida qo'llaniladi. Abu Ali Ibn Sino anor po'stlog'ini qon ketganda, shuningdek, siydik haydovchi yara va jarohatlarda malham sifatida ishlatgan.

Tibbiyotda anor poyasi, shoxlari va ildiz po'stlog'ining dorivor pereparatlari gijjalarni organizmdan haydash uchun meva po'stining qaynatmasi me'da ichak kasalliklarini davolashda qo'llaniladi. Anor mevasining suvi esa bolalar uchun yaxshi harorat tushuruvchi vazifasini bajaradi. Meva shirasi singa kasaligiga davo bo'lib, ishtaxa ochish uchun iste'mol qilinadi. Asrlar mobaynida shifobaxshligi uchun qadrlanib kelingan Anor mevasining xususiyatlari yana shudan iboratki, inson imunitetini kuchaytirib, tanani turli infeksiya va viruslarga qarshi kurashishni kuchaytiradi. Insonga sog'lomlik va chiroy, quvvat hamda tetiklik baxsh etadi. Ayniqsa eng e'tiborlisi shundaki, anor saraton va yurak qon tomir kasalliklarining oldini olish mumkin. Bir asrdan ziyod vaqt davomida O'zbekiston iqlimi sharoitida mahalliyashtirilgan issiqsevar, sug'orish suvi va tuproq unumdorligiga talabchan, sho'rda chidamli ekin.<sup>3</sup>

Bugungi kunda Respublikamizning Surxondaryo, Qashqadaryo, Sirdaryo, Farg'ona viloyatlarida anorchilik jadal rivojlanib bormoqda. Anor mevasidan tayyorlangan betakror sharbatlar mamlakatimiz aholisining kundalik oziq-ovqat mahsulotlaridan biridir. Anor mevalarining bu qadar keng va qadrli tarqalishi uning beqiyos ta'mi vitamininga boyligi hushbo'y

<sup>3</sup> V.A. Kolesnikov - «Praktikum po plodovodstvu» M.: «Kolos» 2011.

hidi, qayta ishlash, saqlash va tashishga yaroqli, yetishtirish va ko'paytirishning u qadar murakkab emasligi va shu kabi tor afzalliklari bilan tushuniladi. Shu bilan bugungi kunda mamlakatimizda meva mahsulotlarining eksport hajmini oshirish eng ustuvor vazifa hisoblanadi. Eksportbop meva mahsulotlari ichida subtropik o'simliklarning mevalari o'ziga xos o'rin egallaydi. Subtropik o'simliklar ichida anor ekinlari o'zining bir qancha xususiyatlari bilan alohida ahamiyatga ega. Aynan shuning uchun ham anorning istiqbolli navlarini izlab topish, ko'paytirish, xalqimiz dasturxoniga arg'umon qilish dolzarb masalalardan biridir.

Davlat tomonidan ham sohani rivojlantirish borasida bir qancha qarorlar ishlab chiqilmoqda. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 15.05.2020-yildagi **"Farg'ona viloyatida anor yetishtirishni ko'paytirish va sohani rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"** qarori O'zbekistonda ayniqsa vodiya sohani rivojlantirish istiqbollari belgilab bergan desak yanglishmagan bo'lamiz. Surxondaryo viloyati Sherobod tumanidagi anorchilik bog'lari ham hukumat e'tiboridagi masala bo'lib kelmoqdaki, kelajakdagi bu yerda ham juda katta loyihalar amalga oshirilishi belgilab olingan.



Anor ekinining istiqbolli navlarini aniqlash, ularning ko'paytirishning turli usullarini sinab ko'rish, introduksiya qilinganda ro'y beradigan biologik holatlarni o'rganish, hosildorlikni oshiruvchi omillarni aniqlash va keng tadbiriq etishdir. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilab olindi:

- ilmiy manbalardan foydalanib hamda mutaxassislar bilan fikr almashish orqali anorning istiqbolli navlarini aniqlab olish;
- anorning istiqbolli navlarini urug' orqali va vegetativ usullar orqali ko'paytirish hamda eng maqbul yo'llarini topish;
- urug'dan o'stirilgan va qalamcha orqali ko'paytirilgan nihollarni o'sishi va rivojlanishini qiyosiy o'rganish;
- amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

O'zbekiston Respublikasining iqtisodiyotini belgilovchi va katta daromat keltiradigan asosiy sohalardan biri bog'dorchilik hisoblanadi. Bu sohani ilmiy asosda rivojlantirmasdan turib, aholi va sanoatimizning meva mahsulotlariga bo'lgan talabini qondirish mumkin emas. Shunday ekan, qishloq xo'jaligi sohasini, shu jumladan anorchilikni chuqur o'rganib chiqib olish va ularning ijobiy yechimini topishni taqazo etadi. Umuman olganda Respublikamizda anor ekinini mevalarini yetishtirish, ularning maydonlarini yanada kengaytirish, mavjud bo'lgan agrotexnika va mehnatni to'g'ri tashkil qilish orqali ulardan samarali foydalanish davr talabidir. Shu jumladan, mirishkor dehqonlarimiz qator tumanlarda yillar davomida anorchilik bilan shug'ullanib, anorning sho'rlangan tuproq sharoitida ham mo'l hosil bera oladigan navlarini tanlab, serdaromat anorzor bog'larini yaratishni yo'lga qo'ya oldilar. Shuningdek, anorni

parvarish qilishning viloyat tuproq-iqlim sharoiti uchun ustuvor texnologiyasi yaratilib, yanada takomillashtirilib borilmoqda. Aslida hozirgi kungacha ham anor yetishtirish uchun mavjud bo'lgan bunday qulay imkoniyatlardan yetarli darajada foydalanilayotgani yo'q. Bugungi kunda beriloayotgan imkoniyatlardan foydalanib, anorchilikni chuqur o'rganib, yanada rivojlantirish, yangi navlarni ko'paytirish, ular ustida ilmiy tadqiqotlar olib borishimiz lozim

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlis qonunlar to'plami. 1,2 qism 2017.
2. X.A. Abdullayev, X.X. Karimov, Индексы фотосинтеза в селекции хлопчатника // Душанбе.-Изд-во Дониш,-2001.-С.28-69.
3. A.A. Ro'bakov, S.A. Ostrouxova - «O'zbekiston mevachiligi» T.: «O'qituvchi», 2006.
4. A.A. Ro'bakov, S.A. Ostrouxova - «Plodovodstvo O'zbekistana». T.: «O'qituvchi», 2011.
5. V.A. Kolesnikov - «Plodovodstvo» M.: «Kolos» 2012.
6. V.A. Kolesnikov - «Praktikum po plodovodstvu» M.: «Kolos» 2016.
7. A.G.Martinenko - «Praktikum po plodovodstvu» T.: «Matbuot», 2000.
8. M.M. Mirzayev, M.K. Sobirov - «Bog'dorchilik» T.: «Mehnat» 2014.
9. V.M. Kurennoy, V.F. Koltunov - «Plodovodstvo» M.: «Agropromizdat» 2015.
10. O.K. Afanasev - «Intensivnoe sadovodstvo» T.: «O'qituvchi» 2017.

INNOVATIVE  
ACADEMY